

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA PEDAGOGIK JARAYONNI
LOYIHALASHTIRISHNING TUZILISHI VA FUNKSIYALARI

Maxmudova Durdona Mirkarimovna

Nizomiy nomli TDPU "Maktabgacha ta'lism pedagogikasi va psixologiyasi" kafedrasi
Azimova Zebaxon

Nizomiy nomli TDPU "Maktabgacha ta'lism pedagogikasi va psixologiyasi" kafedrassi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lism tashkilotlarida mashg'ulotlarni yangicha yondashuv asosida loyihalash va yangi metodik tavsiya usullarini ishlab chiqish, pedagogik metodikalarini mashg'ulotlarda qo'llash usullari yoritib berilgan.

Abstract: This article describes the methods of designing training in preschool educational organizations based on a new approach, developing new methodical recommendation methods, and using pedagogical methods in training.

Loyiha – aniq reja, maqsad asosida uning natijalanishini kafolatlagan holda pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan harakat mahsuli. Loyiha dastur, model, texnologik xarita va boshqa ko'rinishda namoyon bo'ladi. Loyihaning asosini ilmiy yoki ijodiy xarakterga ega g'oya tashkil etadi.

Loyihalash – boshlang'ich ma'lumotlarga asoslanib, kutiladigan natijani taxmin qilish, bashoratlash, rejalahtirish orqali faoliyat yoki jarayon mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan amaliy harakat. Loyihalash „g'oya – maqsad – kutiladigan natija – taxmin qilish – bashoratlash – rejalahtirish” tizimiga asoslanadi. Loyihalash turli vositalar, ya'ni moddiy buyum, qurollar, masalan: kompyuter texnologiyasi, vatmon yoki oddiy ish qog'ozi, chizg'ich, qalam, marker, nusxa ko'chirish apparati (printer) va b. yordamida amalga oshiriladi. Xo'sh, o'quv loyihasining o'zi nima? O'quv loyihalarini tayyorlash jarayoni qanday kechadi?

Loyihani yaratish uchun pedagog:

- loyihani yaratish;
- jarayonni bosqichma-bosqich yoritish;
- maqsadni aniq belgilash;
- maqsadga mos vazifalarni aniqlash;
- o'quv materiali mazmunini shakllantirish;
- savol va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish;
- jarayon yoki tadbirning metodik tuzilishini asoslash;
- o'quvchi bilim darajasini tashxislash va uning tarbiyalanganlik darajasini baholash kabi ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi zarur.

Ta'lism jarayonini loyihalash – alohida olingan ta'lism jarayonini samarali tashkil etish uchun barcha omillarni inobatga olgan holda uning loyihasi (sxemasi)ni ishlab chiqish.

Ta'lism jarayonini loyihalash qonuniyatları:

- 1) ta'lism jarayonini loyihalash samaradorligi barcha tarkibiy qismlar (texnologik jarayon, texnologik jarayonni boshqarish, vosita, axborot, ijtimoiy iqtisoiy ta'minot)ning loyihada maqsadga muvofiq yoritilishi bilan ta'minlanadi;
- 2) ta'larning texnologik vositalari o'quvchilarining individual xususiyatlariga bog'liq holda tanlanadi;
- 3) loyihalash strategiyalari pedagogning individual uslubiga muvofiq tanlanadi;
- 4) loyihalash sifati teskari aloqa (pedagog va o'quvchi o'rtasidagi) ko'lami, loyihalash mazmuni hamda barcha omillar samaradorligiga bog'liq.

O'quv jarayonlarini loyihalashtirishda ta'lism mazmunini, ta'lism maqsadi, kutilayotgan natijani to'g'ri belgilash, ta'lism metodlari, shakllari va vositalarini to'g'ri tanlash, o'quvchilarining bilim,

ko'nikma va malakalarini baholashni aniq mezonlari oldindan ishlab chiqish, mashg'ulotga ajratilgan vaqt ichida ularni to'g'ri amalga oshirish va bir-biri bilan uyg'unlashuviga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq sanaladi.

O'quv mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rishning asosiy bosqichi – o'quv jarayonini loyhalashtirish hisoblanadi. Bu jarayon quyidagi bosqichlarda tashkil etiladi:

1. Mashg'ulotning maqsadi va natijasini belgilash.
2. Nazorat topshiriqlari va baholash mezonlarini ishlab chiqish.
3. Ta'lif resurslarini tanlash.
4. O'qitish va o'qish strategiyasini belgilash.
5. Mashg'ulot turini tanlash.
6. Mashg'ulotning texnologik xaritasini ishlab chiqish.

Mashg'ulot maqsadi va natijasini belgilash – o'qitish va o'qish jarayonlarining eng muhim omili bo'lib, ta'lif jarayonida aynan ular yetakchi o'rinn tutadi. Mashg'ulotning maqsad va natijasi DTS talablaridan kelib chiqib aniqlanadi. Ayni o'rinda shuni ham qayd etib o'tish kerakki, mashg'ulotning maqsadi tarbiyachitomonidan o'quvchiga qanday bilim, ko'nikma va malakalarning berilishi nuqtai nazaridan emas, balki o'quvchilar tomonidan mashg'ulotda qanday bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirilishi muhimligidan kelib chiqib belgilanishi zarur.

Mashg'ulot maqsadining aniq bo'lishiga erishish uchun o'qituvchidan quyidagilarga e'tibor qaratish talab etiladi:

- 1) mashg'ulotda yuzaga keladigan didaktik jarayon ma'lum sharoit va belgilangan vaqt ichida ta'lif maqsadiga erishishni to'la ta'minlay olishi;
- 2) o'qitish jarayonining yakuni bo'yicha maqsadni amalga oshirish darajasi to'g'risida aniq xulosa chiqarish imkoniyatining mavjudligi.

Shunga ko'ra aytish mumkinki, ta'lif maqsadlari o'quvchilarning harakatlarida ifodalanadigan ta'lif natijalari belgilanadi.

Ta'lif texnologiyasining keyingi eng muhim komponenti – kutilayotgan natijadir. Binobarin, u o'qitish jarayonining samaradorligini aks ettiradi va maqsadga erishish darajasini tavsiflaydi, o'qitish va o'qish jarayoni, natija qo'yilgan maqsadga mos kelganda yakunlanadi.

Nazorat topshiriqlari va baholash mezonlarini ishlab chiqish – mashg'ulotning didaktik maqsadi, kutilayotgan natija, o'quv materialning mazmuni asosida nazorat topshiriqlarini ishlab chiqish, ularning hajmi, bajarilganlik darajasi, bajarilish sifati, vaqtiga ko'ra baholash mezonlarini ishlab chiqishni nazarda tutadi.

Ta'lif resurslarini tanlash – mavjud shart-sharoitdan kelib chiqqan holda o'qituvchi, o'quvchi va mashg'ulotni tashkil etish uchun ta'lif vositalarining o'rinni tanlanilishini, ulardan o'quv jarayonida to'g'ri foydalanishni ko'zda tutadi. Tarbiyachi mashg'ulotni tashkil etish uchun ta'lif vositalari sifatida quyidagilardan foydalanadi

Innovatsion texnologiyalar yana shunisi bilan ahamiyatli, o'qituvchi o'quvchining fikrini hech qachon keskin rad etmaydi, faqatgina to'g'ri xulosasini aytib ketadi, natijada o'quvchi o'z xatosini tushunib yetadi. Bu esa ularni tushkunlikka tushish, fikrlashdan to'xtash kabi holatlarning oldini oladi va doimiy faollikni ta'minlaydi. Interfaol metodlar o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro hurmatga asoslanadi. O'qituvchi har qanday vaziyatda ham o'quvchininh fikrini tinglaydi, hurmat bilan qaraydi, shu bilan birga o'quvchilarni bir-birlarini tinglashga o'rgatadi. Shunday qilib ushbu fanning dolzarbligi: pedagogika fanlarini o'qitishda innovatsion texnologiyalarni ham vositalarni takomillashtirish uchun shart-sharoitlarni yaratish zarurligi, o'qituvchi va tarbiyachilarni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirib ta'lif sifatini oshirish mavzu dolzarbligini asoslaydi.

Adabiyotlar ro`yxati:

**INTERNATIONAL CONFERENCE PEDAGOGICAL REFORMS AND THEIR
SOLUTIONS**
VOLUME 1, ISSUE 1, 2024

1. Махмудова, Д. М. (2022). МАКТАБГАЧА КАТТА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИ КИТОБХОНЛИККА ТАЙЁРЛАШ МЕТОДЛАРИ. *Results of National Scientific Research International Journal*, 1(6), 274-278.
2. Кадирова, Ф. Р., & Махмудова, Д. М. (2022). Мактабгача катта ёшдаги болаларни китобхонликка тайёрлаш методикасини такомиллаштириш. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 10-16.
3. Makhmudova, D. M. (2023). EFFECTIVENESS OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 4(1), 177-180.
4. Махмудова, Д. М. (2022, November). СПОСОБЫ ЗАИНТЕРЕСОВАТЬ ДОШКОЛЬНИКОВ ЧТЕНИЕМ. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE " THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS"* (Vol. 1, No. 3, pp. 96-101).
5. Maxmudova, D., & Raxmanova, X. (2022). РОЛЬ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИЕ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА. *Science and innovation*, 1(B7), 1213-1217.
6. Makhmudova, D. M., & Sultanova, Z. (2023, September). METHODS USED IN THE MORNING RECEPTION OF CHILDREN IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" SCIENTIFIC ADVANCES AND INNOVATIVE APPROACHES"* (Vol. 1, No. 4, pp. 8-12).
7. Makhmudova, D. M. (2023, September). ORGANIZATION AND MANAGEMENT OF MODERN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" SCIENTIFIC ADVANCES AND INNOVATIVE APPROACHES"* (Vol. 1, No. 3, pp. 53-57).
8. Mahmudova, D. (2023). PROBLEMS OF ARCHAEOLOGICAL TOURISM DEVELOPMENT IN NAMANGAN REGION. *American Journal of Research in Humanities and Social Sciences*, 8, 61-63.
9. Makhmudova, D. M. (2021). Technology of creating electronic book of fairy tales in preschool organizations. *Экономика и социум*, (1-1 (80)), 157-159.
10. Makhmudova, D. M. AWAKENING CHILDREN'S PRESCHOOL AGE LOVE OF READING.